

*E.Abdullaev, lecturer,  
Fergana state university,  
Uzbekistan, Fergana city*

*E.Abdullayev, o'qituvchi,  
Farg'ona davlat universiteti,  
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

## **INNOVATIVE METHODS OF TEACHING HISTORICAL SCIENCE**

### **TARIX FANINI O'QITISHNING INNOVATIONS USULLARI**

**Annotation:** this article highlights modern methods of teaching historical science. At the same time, important aspects of the introduction of pedagogical and information technologies in the teaching of historical science have been studied.

**Keywords:** history, methodology, pedagogy, ICT, innovation, education.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix fanini o'qitishning zamonaviy usullari yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda tarix fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishning muhim tomonlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, metodika, pedagogika, AKT, innovatsiya, ta'lif.

Ma'lumki, hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan yoshdar jamiyatni ilmiy texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch-quvvat manbai bo'lib, ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yosh iqtidorli mutaxassislarni izlab topish, ularni to'g'ri yo'naltirish oliy maqsadlardan biridir.

Har qanday mamlakatning qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog’liq. Mamlakatimizda shakllanib borayotgan umumiy ta’lim tizimi talabalarining intellektual va axloqiy imkoniyatlarini ochishga, ularning qobilayati va imkoniyatlariga muvofiq o’qitish, qobiliyatli yoshlarni kamol topishiga imkon yaratmoqda kelajakda to’g’ri va ongli ravishda yo’l tanlashlariga yordamlashish, talabalarni mehnat bozori va ta’lim mehnatining o’zgaruvchan talablariga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tarix fanini o’qitish metodikasi umuman ta’lim tizimida o’quvchilar tomonidan tarixiy bilimlarni o’zlashtirish, shu asosda tarixni o’rganishning mazmuni, maqsadi va uning tashkil etish metodlari masalalarini qamrab oladi. Xalq ta’limi sohasida tarix ta’limi oldiga qo’yilgan asosiy maqsad yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug’ g’oya kerak. Bu g’oyaning zamirida xalqimizning o’zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o’zlikni anglash mumkin emas degan tamoyil asosida ta’lim tizimida tarixiy bilim va tushunchalar, tamoyillar va dunyoqarashlarini faol shakllantirish va rivojlantirishni tadqiq etadigan ilmiy-pedagogik fandir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30 iyundagi “O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O’zbekistonning eng yangi tarixi bo’yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi Qarorida belgilanganidek, Birinchi yo’l – yangi avlod ilmiy va o’quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinci yo’l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ’ib etish va o’qitish[1]dir.

Tarix fanini o’qitish metodikasi fanining hozirgi jamiyatdagi holati va rolini tahlil etishda mashhur mutafakkirlarining bu muammoni Sitseron “Tarix-hayot murabbiysidir” deb atagan bo’lsa, Leonardo do Vinchining fikricha “O’tgan davr va jahon mamlakatlari o’tmishini bilmoq - inson ko’rki va uning aqliy mahsulidir”deydi.

Ilmiy-uslubiy va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy - gumanitar fanlardan bilimlarni o'rganishga bo'lган ehtiyojlari ortib boradi. Bu jarayonni kundalik pedagogik faoliyatimizda doimiy ravishda kuzatib borar ekanmiz, o'quvchilar bilimlarida miqdor o'zgarishlarni sifat o'zgarishlariga qarab o'sib o'tayotganligining shohidi bo'lamiz.

O'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda o'quvchilarning o'quv faoliyatlariga o'qituvchi tomonidan mohirlik bilan rahbarlik qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Fanlarni o'rganish samaradorligini oshirish asosan o'quv jarayoniga to'g'ri zamonaviy yondashuv jarayoni asosan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini ilmiy bilim manbalari bilan ta'minlash. «O'quvchilarga ijtimoiy - gumanitar fanlardan bilim manbalarining asosiy poydevori va muhim tomonlarini ilmiy asosda shakllantirish birinchi galda o'qituvchilarning o'zini ana shunday bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan egallashlarini, shuningdek, ana shu bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkaza bilishning optimal uslublari bilan qurollangan bo'lmg'и yoki donolar iborasi bilan aytganda: «tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmg'и kerak», degan konцепцияга amal qilishi kerak.

2. O'quvchilarning o'rganiladigan materialga nisbatan ruhiy holatlarini yo'naltira bilish, ularda bilimlarga bo'lgan qiziqishlarini faol uyg'otib borish, dars jarayonida o'quvchilarning mustahkam, barqaror diqqat-e'tiborlarini tashkil eta bilish, ularda mustaqil tafakkur eta olish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchining pedagogik faoliyatida asosiy o'rinni egallashi zarur.

3. Dars jarayonida o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga, idrok etishga o'qituvchining bevosita va tizimli rahbarlik qilishi mazkur muammoni ijobiy hal etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Mazkur o'rinda o'qituvchidan o'quvchilarni dars jarayonida o'rganilayotgan mavzudagi asosiy masalani, ya'ni bilishlari shart bo'lgan ilmiy masalani alohida qayd etishi, darslikda bo'lsa turlicha yozuvlarda bayon etilgan materialni, og'zaki bayon

etilgan bo'lsa ifodali o'qishni, mavzuni bayon etish rejasini tuzishni taqozo etadi. Eng asosiysi o'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarning darslik matni ustida ishlashi bo'lmasin, manbaviy hujjatlar, davriy matbuot va badiiy adabiyot asarlarini mustaqil tahlil etishni faollashtirishi lozim[2].

Xulosa qilib, hozirda o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtda respublikada faoliyat olib borayotgan ko'pgina umumiy o'rta ta'lim maktablari yetarli darajada texnik vositalar bilan ta'minlangan, biroq aksariyat pedagoglar yetarli darajada ulardan samarali foydalanish malakasiga ega emaslar. O'qituvchi o'quvchilarning ilmiy materialni bilish jarayonining hamma bosqichlaridagi tafakkurlariga mohirlik bilan rahbarlik qilib bormog'i lozim. Bu rahbarlik birinchi galda yangi materialni bayon etishda, uni mustahkamlashda, uy vazifasini bajarish va umumiy takrorlash darslarida o'qituvchining diqqat markazida bo'lmosh'i kerak. Ayniqsa, o'quvchilarning bilish tafakkurlarini idora etish va boshqarish ular tomonidan nazariy masalalarni o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur o'rinda kuzatilgan maqsad: o'quvchilar ilmiy faktlardan olgan bilimlari majmuasidan aniq nazariy xulosa chiqarishga erishish, ilmiy faktlarning nazariy ifodasini mustaqil sharhlash imkoniyatiga ega bo'lishdir.

### **Adabiyotlar:**

1. www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonnig eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
2. Toshpulatov T., G'afforov Ya. "Tarix o'qitish metodikasi". Toshkent. 2002.
3. Alimova, N. O. (2021). Some Views On The History Of Daily Life Of Women In The Villages Of The Ferghana Valley (1946-1991). *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(07), 45-47.

4. Yuldashev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 36-40.
5. Bekmirzaev, R. B. (2021). Traces Of Archaic Religions In The Modern Way Of Life Of The Peoples Of The Ferghana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 41-46.
6. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 122-125.
7. Nizomiddinov, O. (2021). The Importance Of The Documents Of The Regional State Archive In The Research Of The History Of The Autonomy Of Turkestan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 53-57.
8. Nizomiddinov, O. (2021). Establishment of a single state archive fund in the republic of turkistan (on the example of the fergana regional state archive). *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 822-825.
9. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.
10. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. *Журнал естественных наук*, 1(1).